



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik amaliyotini tashkil etishning afzalliklari

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrasini o'qituvchisi

Tursunova Nilufar Samiyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik amaliyotning afzal tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bo'lajak o'qituvchilar, boshlang'ich ta'lim, pedagogic, amaliyot, odob, axloq, burch, majburiyat.

Аннотация: В данной статье освещаются преимущества педагогической практики в развитии профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: будущие учителя, начальное образование, педагогика, практика, этикет, мораль, долг, приверженность.

Annotation: this article covers the advantages of pedagogical practice in the development of professional training of future primary school teachers.

Keywords: future teachers, primary education, pedagogical, practice, etiquette, ethics, duty, commitment

Bugungi ilm-fan, texnika taraqqiy etayotgan bir davrda har bir soha vakili ijodiy jamoada ishlay olishi, yangi texnologiyalarni joriy etishning xo'jalik, ijtimoiy va madaniy jihatlarni aniq tasavvur qila olishi kerak.

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri-o'z kasbiga sodiqligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlarining yuqori saviyada olib borilishi o'qituvchi va uning kasbiy tayyorgarligiga bevosita bog'liq. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogic faoliyatlarini boshlashlaridan oldin o'qituvchining asosiy odob axloq va burchlarini o'rgangan bo'lishlari talab qilinadi. Bo'lajak o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablardan biri: o'zining mutaxassisligiga oid bilimlarni chuqur bilishi, metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi lozim. O'z mutaxassisligiga oid predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi bolalarning ilmga bo'lgan qiziqishini oshirishi bilan birgalikda o'qituvchining obro'yini oshiradi. Bolalarga nisbatan hurmat munosabatida bo'la olgan, insongina o'qituvchi bo'la oladi.

"Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"da boshlang'ich sinf o'qituvchisining qiyofasi quyidagicha ta'riflanadi: "...eng muhimi, bolalarda o'qish, o'rganishga chinakam havas, ishtiyor uyg'otuvchi, e'tiqod hosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o'rin tutadi". Ushbu



konsepsiyada boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yiladigan quyidagi talablar ham keltirilgan.:

-O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonadigan milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishi,

-Bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiya qila olishi,

-Nutqi ravon, adabiy til uslub va me'yorlarini to'la egallagan bo'lishi zarur.

Bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogic faoliyatlarini boshlashlaridan oldin ushbu talablarga javob bera olishi , shuningdek quyidagi sifatlarni ham egallagan bo'lishi kerak:

- 1.Bilish qobiliyati
- 2.Tushuntira olish qobiliyati
- 3.Kuzatuvchanlik qobiliyati
- 4.Nutq qobiliyati
- 5.Tashkilotchilik qobiliyati
- 6.Obro' orttira bilish qobiliyati
- 7.To'g'ri muomala qila olish qobiliyati
- 8.Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati
- 9.Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va kompetentligini oshirishda amaliyotning o'rni beqiyosdir. Bakalavrlar tayyorlashda ko'plab amaliyot turlari o'tkaziladi, shulardan biri pedagogic amaliyot bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimining asosiy va muhim qismidir.

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimi va bo'lajak mustaqil faoliyatini bog'lash va kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda datlabki tajriba maktabi hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, pedagogic faoliyat mas'uliyatini his etish va o'z ustida ishlashko'nikmasini shakllantirish, shuningdek, tajribali o'qituvchilarning ish faoliyatlarini tahlil qilib, o'rganishdan iboratdir.

Pedagogik amaliyotning samaradorligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Kasbiy tayyorgarlik-zarur kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi sifatida izohlanadi. Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga xos tasavvur, tushunchalarni



tarkib topganligi bilan ifodalansa, keyinchalik mutaxassislikka oid bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi, kasbiy sifatlarning qaror topishi hamda kasbiy moslashish darajasi bilan izohlanadi. Oliy ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi. Pedagogik amaliyot talabalarda tanlangan mutaxassislikning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo'lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta'minlanadi. Bunda kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezonlari sifatida bo'lajak mutaxassisning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish, kasbiy faoliyat talablariga moslashish darajasi belgilanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, bo'lajak o'qituvchilarning faoliyatida pedagogik amaliyot beqiyos o'rin tutadi. Har bir pedogog qanday qobilyatlarga ega bo'lishi, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda pedagogik amaliyot muhim ahamiyatga ega. Albatta shuni ham aytish zarurki, talabalarning o'quv davri mobaynida egallagan kasbiy ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llash uchun ham eng qulay fursat pedagogik amaliyot hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida qonuni 2020-yil.
2. O'zbekiston uzluksiz ta'limining davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti 2021-yil 16-iyul.
3. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. //Saylanma. - T.: O'qituvchi, 1997.
4. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomli TDPU, 2005,
5. Xusnidinova Gulnoza Zoxidjon qizining Magistrlik dissertatsiyasi «Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishning pedagogikshart-sharoitlari».
6. www.aim.uz
7. www.arxiv.uz
8. www.ziyonet.uz